IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O`STIRISH FAOLIYATLARINI DIDAKTIK TASHKIL ETISH

Qodirova Nargiza Rahmatillo qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti o`qituvchisi
E-mail: mamasoliyevanargiza3@gmail.com

Annotatsiya.
Boladagi barcha aqliy qobiliyatlar ona tilini o'zlashtirish, ayniqsa uni maktabgacha yoshda o'rganib olish tufayli yuzaga chiqadi hamda rivojlanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o`stirish faoliyatlarini didaktik tashkil etish orqali tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish. so`z boyligini oshirish, bog`lanishli nutqni rivojlantirishga e`tibor qaratiladi.

Kalit so`zlar:
lug`at boyligi, so`z boyligi, grammatik tuzilish, to`g`ri talaffuz, bog`lanishli nutq, muammoli metod, suhbat metodi, kommunikativ kompetensiya.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog‘lom, tabiiy muhit yaratish, bolalarning to‘g‘ri muomalaga kirishtirish, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo‘ladi. Buning uchun bolalar nutqining shaklan va mazmunan mantiqiy birligiga erishishi muhim talab hisoblanadi. Buning uchun bir necha talablar qo`yiladi.

Birinchi talab, bola o‘z lug‘at boyligiga ega bo‘lishi zarur. Bu uning boshqalar bilan muomalaga kirishishida yordam beradi. Bunda tarbiyachi asosiy diqqat-e'tiborini tabiiy holatda bolalarning lug‘at boyligini oshirib borishga qaratadi. Bolalarning so‘z boyligini oshirishda esa ularning kundalik faoliyatida tevarak-atrof bilan tanishib borishi muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Ikkinchi talab, bolalar nutqining grammatik tuzilishini aniq shakllantirishga e'tibor berish lozim. Bunda bolalarni yo‘naltiruvchi savollar, mashqlar vositasida nutqdagi so‘zlarni to‘g‘ri ishlatish, gapni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi talab, bolalarda tovush madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Zero, bolalarni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish metodika ilmidagi murakkab masalalardan hisoblanadi.

To‘rtinchi talab, dialogik nutq, ya'ni so‘zlashuv nutqini rivojlantirishdir.

Beshinchi talab, hikoya qilib berishga (monologik nutq) o‘rgatishdir. Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda monologik nutq katta yordam berishi amaliyotda o‘z isbotini topgan. Tafakkurning rivojlanlanligi lug‘at boyligi, jumla tuzish malakasi, o‘z fikrini erkin va ravon bayon eta olish ko‘nikmasi bilan chambarchas bog‘liq.

Oltinchi talab, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish, bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining eng yorqin namunalari kichkintoylarni yangi bir olamga olib kirishga xizmat qiladi. Adabiy asarlar bilan tanishtirish bolalarda faqat bog‘lanishli nutqni rivojlantiribgina qolmay, ularda badiiy adabiyotga mehr - muhabbat tuyg‘ularini ham paydo qiladi.

Yettinchi talab, bolalarni savod o‘rgatishga tayyorlashdir.

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

Bu talablar maktabgacha tarbiyaning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Lekin ularning har birida bolalarning yosh xususiyati, psixologik holati, shaxsiy tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi. Katta guruhda bolalar nutqi bir muncha shakllanib qoladi. Zero, maktabgacha yoshdagi katta bolalar faoliyatining mazmunan va shaklan xilma-xilligi ular nutqining takomillashib borishiga ham yordam beradi.

Bog‘lanishli nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o‘ynaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqqa doir, malaka va ko‘nikmalari mavjud bo‘lganligini hisobga olib, ularda bog‘lanishli nutqni shakllantirishda, avvalo, tevarak-atrofni kuzatishda nimalarga e’tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular, avvalo, ona-Vatan haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdan boshlanadi. Bunda, birinchi navbatda, bolalar so‘z boyligini kengaytirishda Respublikamiz tabiati, kasb-hunarga oid, qurilish va qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan mashinalar, narsalarning o‘ziga xos belgilari va ranglari, mehnatga munosabatni ifodalovchi tushunchalar, nom va so‘zlar bilan boyitish zarur. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish: ona tilidagi antonim, sinonim, omonim so‘zlarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llashga doir tushunchalar, so‘zlar bilan boyitishga erishish lozim. Bolalarni narsalarning nomlarini to‘g‘ri aytishga, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarini, jinsi va turiga oid yo‘naltiruvchi lug‘atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqini takomillashtirish va nihoyat savod o‘rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham bog‘lanishli nutqni rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilganda tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil ifodalay olishga, lug‘at boyligiga, matn mazmunini bayon etishda izchillikka rioya qilishi, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishi, nutqning ravonligi, tezligi, jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olishi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi, nutq madaniyatiga rioya etishiga qaratiladi. Misol uchun, “Ovchilar va quyonlar”, “Nimaning bolasi?”, “Nimaning dumi?” kabi o‘yinlardagi savol-javoblar ham bolalarning dialogik nutqini rivojlantiradi. Tarbiyachi bolalarga “Nimaning dumi?” deb savol beradi. Bolalar bo`riniki, tulkiniki, olmaxonniki deya javob qaytaradilar. O‘yin shartiga asosan hayvonning nomini takror aytgan bola biror shartni bajaradi: o‘yinga tushadi, she’r aytadi yoki qo‘shiq kuylaydi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga muayyan mavzular bo‘yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig‘i ham berilishi mumkin. Bunday topshiriq ustida ishlash orqali ularda mustaqillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. Masalan, “Mening do`stim”, “Bahor fasli”, “Bizning Vatan”, “Gullar ochildi” va hokazo mavzularda hikoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi. Hikoya qilish bolalarning jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, tovushlarni, qo‘shimchalarni to‘g‘ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy vositalardan to‘g‘ri foydalana olishiga yordam berib boriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o’qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus faoliyatlarda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o’tkaziladi. Biroq nutq albatta borliq xodisasini aks ettirishi lozim. Nutqiy muloqotga bo’lgan zarurat tufayli to’satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o’zining til sezgisiga ishongani holda har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko’rishi shart.

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

Ta’lim amaliyotida usul, ko‘pincha, metod bilan almashtirib yuboriladi. Usullar farqlanib-farqlanmay metod deb ketilaveriladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta’limning muammoli metodi: muammoli savol-topshiriq tuzish, muammoli vaziyat yaratish, o‘quv farazlarini shakllantirish, muammoning echimini topish, fikrlarni isbotlash, xulosa chiqarish, xulosalarni umumlashtirish singari usullarni qamrab oladi. Tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta’limning mantiqiy metodlarida ham o‘rganilayotgan o‘quv materialidan muhimni ajratish, o‘rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, didaktik tahlilga tortish, isbotlash, singari bir qator umumiy usullardan foydalaniladi. Mantiqiy metodlar qo‘llanilganda o‘zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo‘laklarga bo‘lish, ularni taqqoslash, materialni saralash, tayanch so‘z va tushunchalarni topish, asosiy fikrni aniqlash, o‘quv materialini guruhlarga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish singari ishlar ham usullar hisoblanadi. Faoliyat usullarni, usullar metodlarni, metodlar esa texnologiyalarni tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish faoliyatlarida yuqoridagi metod va usullardan xoslarini tanlab amalda foydalanish mumkin. Bu bosqichda badiiy matnning didaktik tahlilini ongli ravishda amalga oshirish, timsollardagi muhim jihatlarni ajratishda matnni qismlarga bo‘lish yoki undagi muhim tizimli belgilarni topish, sintez aloqalarni anglash va tushuntirib berish ishlari ham samarali usullardan hisoblanadi. Masalan: “Aniqlik kiritish” usuliga umumnazariy fikrdan xususiysiga o‘tish, uni qo‘llash yoki mavhumlikdan aniqlikka, ko‘pshakllilikka o‘tish ishlari kiradi. “Isbotlash” usuliga esa tezislarni aniqlab olish, isbotlashning yo‘llarini belgilash, zarur dalillarni to‘plash, xulosalarni bir tizimga solish, sababiy aloqalarni aniqlash ishlari kiradi. Faoliyat jarayonida ta’lim usullari qo‘llanilganda bolalar tomonidan bajariladigan ishlarning ma’lum qismi takrorlanadi. Bu hol, o‘z navbatida, bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bo‘lajak tarbiyachilar bu nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmasini mustahkam egallab olishlari taqozo etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari so‘z bilan ishlash faoliyatlarida bolalarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirishda yuqorida sanalgan mantiqiy metodlarning barchasidan samarali foydalanish mumkin. Ularda u yoki bu darajada ishtirok etuvchi usullar mazmunini belgilovchi didaktik ashyo savollar hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatlarini samarali tashkil etishda va “Ilk qadam” dasturidagi kommunikativ kompetensiya talablarini amalga oshirishda qo‘l keladigan:

o‘rganiladigan asar mazmunining mohiyatini ochishga;

uning badiiy jozibasi, qimmati, ta’sirchanlik jihatlarini topishga;

matnda aks etgan milliy ruhni ilg‘ashga;

mustaqil va mantiqli fikrlashga hamda mustaqil faoliyatga;

shaxsiy munosabat bildirishga yo‘naltiruvchi mazmundagi savol va topshiriqlar tizimini ham kiritish maqsadga muvofqdir.

Savollar tuzish, savol bilan tarbiyalanuvchilarga murojaat qilish usullari bolalarni mustaqil faoliyatga yo‘naltiruvchi evristik, taqqoslash-qiyoslash, tadqiqot, induktiv, deduktiv metodlarning asosini tashkil etadi. Tarbiyachi-pedagogning o‘rtaga tashlagan har qanday savoli, u ritorik bo‘ladimi yoki bolalardan bevosita javob talab qiladimi yoxud biror muammoning yechimiga yo‘naltiriladimi,

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

tarbiyalanuvchi aqliy faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Savollar ritorik tarzda qo‘llanilganda ular ko‘magida o‘rganilayotgan obyektning muhim jihatlariga urg‘u berish, bolalarning diqqatini shunga qaratish nazarda tutiladi. Ritorik savollar bolalarni mana shu muhimni yaxshiroq ko‘rishga va hayolan avval o‘rganilganlari bilan yangi o‘zlashtirilayotgan bilimlar orasidagi aloqani tiklashga yo‘naltiradi va shu tarzda keyingi ma’lumotlarni diqqat bilan chuqurroq egallashga e’tibor qaratiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi faoliyatlarda rasmlar asosida o‘ziga xos, yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar tuzish ham bolalarga materialni ko‘z bilan ko‘rish orqali chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bunday topshiriqlar hamisha muvaffaqiyatli bajariladi, muvaffaqiyat esa, o‘z navbatida, keyingi bilimlarni egallash omili bo‘ladi.

Tarbiyachi savollarining o‘rganilgan shakllardan boshqacha, o‘zgargan holda qo‘yilishi ham tafakkur va faoliyat mustaqilligining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarda bolaning tafakkuri mustaqil tarzda ishlay boshlaydi. Negaki, uning oldiga javob berishni talab qiladigan vazifa qo‘yilgan. O‘z navbatida, bu usul fikrlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalashni ham talab qiladi. Bu holat nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish, xilma-xil va betakror dunyoni metodik tomondan qiziqarli, turli shakl va vositalardan foydalangan holda zamon talablari asosida bolalarga yetkazishni tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, lug‘at boyligi, nutq madaniyati, nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olish kabi juda ko‘p talablarni hisobga olish zarurati tug‘iladi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida nutq o`stirish faoliyatlarida bolalarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirishda ta`lim-tarbiya berishning mantiqiy metodlari zamirida aks etgan: savollar berish, namoyish etish, ko‘rgazmali, tajriba, amaliy, aqliy harakatlar, masalani o‘rganish, topshiriq berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, xulosa chiqarish singari bir qator usullaridan o‘rni bilan foydalanish, bu jarayonda samaradorlikka erishish garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.Xudayarova. Bolalar nutqini o`stirish nazariyasi va metodikasi. o`quv-uslubiy majmua. SAMARQAND – 2021
2. D.R.Babayeva. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2017.
3. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. -Toshkent, 1995.
4. www.ziyonet.uz
5. www.pedagog.uz